

Korxonalar va tashkilotlar



(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– sentabr holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **6.0 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,5 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **6,6 mingtaga oshgan.**


2018 yilning yanvar-avgust oyida Toshkent shahrida 9,4 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 mingtaga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,4 % ga kamaygan hamda ularning soni 2,7 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 6,0 mingga (8,9%) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 67,3 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Yunusobod tumanida (13,7 %), Chilonzorda (12,7%), Mirzo Ulug'bekda (11,7%) va Olmazorda (10,3%) tumanlarida kuza-

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), ming birlikda




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 Oktyabr holatiga)


| | Ro'yxatdan o'tgan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|------------------------|-------------------|-------------------|-------------------------|-------------------|
| | ming birlik | jamiga nisbatan % | ming birlik | jamiga nisbatan % |
| Toshkent shahar | 68,9 | 100,0 | 67,3 | 100,0 |
| tumanlar: | | | | |
| Uchtepa | 5,8 | 8,4 | 5,6 | 8,3 |
| Bektemir | 1,4 | 2,0 | 1,4 | 2,1 |
| Yunusobod | 9,5 | 13,8 | 9,2 | 13,7 |
| Mirzo Ulug'bek | 8,0 | 11,6 | 7,9 | 11,7 |
| Mirobod | 6,0 | 8,7 | 5,8 | 8,6 |
| Shayxontohur | 6,9 | 10,0 | 6,8 | 10,1 |
| Olmazor | 7,0 | 10,2 | 6,9 | 10,3 |
| Sergeli | 4,0 | 5,8 | 4,0 | 5,9 |
| Yakkasaroy | 6,2 | 9,0 | 6,2 | 9,2 |
| Yashnobod | 5,2 | 7,6 | 5,0 | 7,4 |
| Chilonzor | 8,9 | 12,9 | 8,5 | 12,7 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,5% sanoatda, 20,0 % savdoda, 7,7% qurilishda, 7,3% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,3 % tashish va saqlash, 3,8 % axborotva aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida va 34,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi



2018 yil yanva-sentyabr holatiga 9420 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 15,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Yunusobod tumanida (1347 ta), Chilonzor (1152 ta), Mirzo Ulug'bek (1096 ta) va Shayhontohur tumanlarida (958 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir (193 ta), Sirq'ali (590 ta) hamda Yashnobod (713 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (2450 ta), sanoatda (1701 ta) va qurilishda (1104 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (124 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (157 ta), tashish va saqlashda (387 ta) va axborot va aloqada (168 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

| | 2017 yil yanvar-sentyabr holatiga. | 2018 yil yanvar-sentyabr holatiga. |
|---|------------------------------------|------------------------------------|
| Jami: | 7942 | 9420 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 188 | 157 |
| Sanoat | 2063 | 1701 |
| Qurilish | 793 | 1104 |
| Savdo | 1422 | 2450 |
| Tashish va saqlash | 318 | 387 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 747 | 767 |
| Axborot va aloqa | 342 | 468 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 114 | 124 |
| Boshqa turlari | 1955 | 2262 |

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 oktyabr holatiga 58,7 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 9,5 mingta, oilaviy korxonalar – 2,1 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 45,8 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,2 mingtani va boshqalar 1,1 mingtani tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 oktyabr holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 4394 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 871 taga yoki 19,8 % ga o'sgan. Shuningdek xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 2095 tasi qo'shma korxonalar, 2299 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Mirobod tumani 725 ta (16,5 %), Yakkasaroy 696 ta (15,8 %) va Yunusobod tumanlari 600 ta (13,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Olmazor tumanida 238 ta (5,4 %), Sergeli 174 ta (3,9 %), Uchtepa 124 ta (2,8%) va Bektemir tumanlarida 104 ta (2,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish bo'lasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 oktyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 1241 ta (28,2 %), savdoda 1142 ta (26,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1021 ta (23,2 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 44 ta (1,0 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 61 ta (1,4 %), tashish va saqlashda 153 ta (3,5 %), axborot va aloqada 171 ta (3,9 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 219 ta (5,0 %) va qurilishda 342 ta (7,8 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadi-

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-sentyabr oyida Toshkent shahrida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 1003 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 649 taga ko'paygan yoki 2,8 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 199 ta, Turkiya Respublikasi – 177 ta, Qozog'iston Respublikasi – 138 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-105 ta va Koreya Respublikasi –63 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-iyun holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 333 ta, sanoatda 206 ta, qurilishda 120 ta, axborot va aloqada 57 ta, va boshqa faoliyat turlarida 287 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 oktyabr holatiga Toshkent shaharda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 58,0 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktyabr holatiga qaraganda 11,5% ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 7894 tasi (13,6%) Yunusobod tumaniga, 7322 tasi (12,6%) Chilonzor tumaniga, 6719 tasi (11,6%) Mirzo Ulug'bek tumaniga va 6224 tasi (10,7 foizi) Olmazor tumaniga.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 58,0 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 13,0 mingtasi (22,5%) - sanoatda, 13,3 mingtasi (22,9%) - savdoda, 5,1 mingtasi (8,9%) - qurilishda, 4,8 mingtasi (8,4%) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 2,8 mingtasi (4,8%) - tashish va saqlashda, 2,5 mingtasi (4,3%) - axborot va aloqa sohasida, 1,1 mingtasi (1,9%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 0,6 mingtasi (1,1%) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, shuningdek 14,6 mingtasi (25,2%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 8,8 mintaga yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 15,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Yunusobod tumaniga (1261 ta), Chilonzor (1083 ta), Mirzo Uluq'bek (1030 ta) va Shayhontohur tumanlarida (907 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir (185 ta), Sirq'ali (561 ta) hamda Yashnobod (688 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2450 ta), sanoatda (1699 ta), qurilishda (1101 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (120 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (154 ta) hamda tashish va saqlashda (387 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 oktyabr holatiga 2210 tani tashkil etib, ulardan 2164 tasi yoki 97,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **16,5%**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 44,0 % yoki 951 tasi sanoat, 16,9 % yoki 365 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,0 % yoki 347 tasi savdo, 2,5 % yoki 55 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,8 % yoki 39 tasi qurilish, 1,6 % yoki 35 tasi axborot va aloqa, 0,8 % yoki 18 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 20 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 15,5 % yoki 334 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Toshkent shahar statistika boshqarmasi
 Statistika registrlarini yuritish bo'limi
 Nashr uchun mas'ul: A. Rashidov

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan